

Turkiy Va O'zbek Tilshunosligida Ergonimlarning O'rganilishi (Qarshi Shahar Materiallari Asosida)

U. A. Usmonova¹

Annotatsiya: O'zbek va turkiy tilshunosligida onomastikaning tarkibiy qismi bo'lgan ergonimlarni tadqiq etishga bag'ishlangan bir qancha ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. G. Sattarov, O.A.Donskova, A.M.Emelyanova, M. Saparniyozova va boshqalar ergonimlarning har xil aspektlarda va turli hududlar bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirganlar.

Kalit so'zlar: firmonim, ergonizm, faktik materiallar, sinxron va diaxron, evolyutsiya, atama, lisoniy vaziyat.

Turkiy tilshunoslikda ergonimlarni tadqiqiga bag'ishlangan bir qancha ishlar amalga oshirilgan. Tatar tilshunosligida birinchi marta do'kon va kafe nomlarini o'rganish zarurati 1970-yilda G.F. Sattarov² ning ishlarida o'z aksini topgan. Turkiy ergonimiyaning ayrim muammolari O.A. Donskova³, G.B. Madieva⁴, A.M. Emelyanova⁵, B.X. Musukaeva⁶, G.R. Galiullina⁷ va boshqalarning ishlarida yoritildi.

Turkiy ergonimlarni o'rganishga bag'ishlangan dastlabgi monografik ish sifatida P.M. Amirovaning dissertatsion ishini keltirish mumkin⁸.

P.M. Amirova onomastika fanida davlat muassasalari, madaniyat, sport, savdo obyektlari, tibbiy va maishiy xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar va boshqalarni ifodalashda ergonim, ergonizm, shahar obyektlari nomlari, oykodomonim, ergourbonim, firmonom va boshqa atamalar qo'llanilishini e'tirof etgan holda, o'z ishida ergonim atamasini qo'llash maqsadga muvoqligini ta'kidlaydi. Tadqiqotchi ergonimlarning semantik tabiatini o'rganish natijasida ergonimik leksikaning o'rni va holati to'g'risidagi turli fikrlarga qaramay, ular onomastik birliklar sifatida atoqli otlarga xos bo'lgan barcha xususiyatlarga ega ekanligini e'tirof etadi.

P.M. Amirovaning xulosa qilishicha, Qozon ergonimlari orasida reklama funktsiyasini bajaradigan ergonimlar juda keng tarqalgan. Tadqiqotchi faktik materiallarni tahlil qilib, ko'pchilik ergonimlar bir vaqtning o'zida bir nechta funktsiyalarni bajaradi, degan xulosaga keladi, ammo eng keng qo'llanadigani va barqarori ham reklama, ham informativlik funktsiyalarni bajarishini ta'kidlaydi⁹.

¹ Qarshi davlat texnika universiteti O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida o'qituvchisi

² Саттаров Г.Ф. Этапы развития и очередные задачи татарской ономастики. - Казань: Изд-во Казан, ун-та, 1970. - 87 с.

³ Донскова Г.Л. Сравнительно-сопоставительная характеристика динамики эргонимической номинации Нижнего Поволжья и Западного Казахстана: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. - Пятигорск, 2004. - 16 с.

⁴ Мадиева Г.Б. Ономастическое пространство современного Казахстана: структура, семантика, прецедентность, яематизация: Автореф. дис.... д-ра филол. наук. - Алмата, 2005. - 64 с.

⁵ Емельянова А.М. Эргонимы в лингвистическом ландшафте полиэтничного города (на примере названий деловых, коммерческих, культурных, спортивных объектов г. Уфы): Автореф. дис. ... канд. филол. наук. -Уфа: Изд-во БГУ, 2007. - 23 с.

⁶ Мусукаев Б.Х. Балкарская ономастика в парадигме современной лингвистики: Автореф. дис. ... д-ра филол. наук. - Нальчик, 2007. - 56 с.

⁷ Галиуллина Г.Р., Бадертданов Р.Б. Функционирование антропонимов в качестве эргонимов в татарском лингвокультурном пространстве // Ученые записки Казанского государственного университета. - Казань: Изд-во Казан, ун-та, 2008. - Т. 150, кн.2. - С. 95-99.

⁸ Аморова Р. М. Татарская эргономия города Казани : автореф. дис. ...канд. фил. наук. – Казань, 2011. – 24 с.

⁹ Аморова Р. М. Татарская эргономия города Казани : автореф. дис. ...канд. фил. наук. – Казань, 2011. – С.10.



P.M. Amirova Qozon shahri zamonaviy tatar ergonimlarining nominativ va leksik-semantik xususiyatlariga asoslanib, ularni ikkita katta guruhga birlashtiradi, shuningdek, ularning har birida eng keng tarqalgan kichik guruhlarni aniqlaydi¹⁰.

Tadqiqotchi tatar tili vositalaridan terminologik leksika, pragmatonim va professional leksika asosida ergonimlarni yaratishda kamdan-kam qo'llanilishini ta'kidlaydi. Tatar ergonimiyasi rivojlanishining oldingi bosqichlaridan farqli o'laroq, tegishli terminologiyani o'z ichiga olgan nomlar hozirda ishlatilmaydi¹¹.

M.V. Aulina Ozarbayjon Respublikasidagi lingvistik vaziyatning ergonimiyada aks etishi masalasini o'rgandi¹². Tadqiqotchi til vaziyati ijtimoiy-lingvistik kategoriya sifatida, ergonimning lingvistik maqomini aniqlashning nazariy muammolari, ergonimning onomastik makondagi o'rni, tuzilishi va vazifalari, Ozarbayjondagi hozirgi lingvistik vaziyatning tarixiy asoslarini tahlilga tortadi¹³. Tadqiqotchi Ozarbayjon ergonimiyasida lingvistik vaziyatning aks etishi masalasida to'xtalar ekan, lisoniy vaziyat aloqa qiluvchi tillarning umumiste'mol qilinadigan leksika orqali, shu jumladan, ozarbayjon ergonimlarini nomlash usullari va vositalarining evolyutsiyasi sinxron va diaxron nuqtayi nazardan Boku ergonimlari misolida ko'rib chiqilganligini ta'kidlaydi¹⁴.

Ta'kidlanadiki, zamonaviy Ozarbayjonda to'rtta tildan foydalanish jarayoni mavjud: ozarbayjon tili davlat tili, rus tili millatlararo aloqa tili, turk tili qorindosh til va ingliz tili jahon iqtisodiyotining globallashuvi talab qilayotgan til sifatida.

Keltirilishicha, ergonimlarni o'rganishga antropotsentrik yondashuv tufayli ularni etnik guruhning o'ziga xosligini, uning hayoti, madaniyati, ongi va siyosiy yo'nalishi xususiyatlarini o'rganish manbai sifatida ko'rib chiqish mumkin. Bularning barchasi nomlanishning sabablari, usullari va vositalarida o'z ifodasini topgan¹⁵.

Tadqiqotchining fikricha, tarixiy manbalar va lingvistik materiallarni tahlili inqilobdan oldingi davr korxonalarining salmoqli qismida korxonalarining egalarining familiyalaridan shakllangan nomlar ustunlik qilgan. Sovet davridagi xizmat ko'rsatish korxonalarining aksariyati oddiygina raqamlangan bo'lib, bu mavjud materialning 76%ni tashkil etgan; mavjud korxonalarining faqat 24% nomga ega bo'lgan. Bulardan ruscha nomlar ergonimlarning umumiy sonining 12,2% ni tashkil etgan¹⁶.

M.V. Aulinaning ta'kidlashicha, Sovet davrida ozarbayjon ergonimiyasida chet el nomlari ishlatilmagan. Milliy ozchilikni tashkil etuvchilarning tillari ham shahar ergonimiyasida ifodalanmagan. Postsovet davridagi xizmat ko'rsatish sohasi korxonalarining katta qismi nomga ega bo'lib, ular mavjud ergonimlarning 98%ni tashkil etadi va faqat 2% korxonaning nomlashda raqamlardan foydalanilgan (barcha raqamlangan obektlar dorixonalariga to'g'ri keladi).

Tadqiqotchi Boku ergonomikasida tillar munosabatini tahlil qilib, quyidagi natijalarni qayd etadi: inglizcha - 35,3%, ozarbayjoncha - 28% ruscha – 9,5%, italyancha – 6%, fransuzcha - 5%, turkcha - 3% . Keltirilgan tahlillar Boku ergonimiyasida ingliz tilining mashhurligini ko'rsatadi¹⁷.

¹⁰ Аморова Р. М. Татарская эргономия города Казани : автореф. дис. ...канд. фил. наук. – Казань, 2011. – С.13.

¹¹ Аморова Р. М. Татарская эргономия города Казани : автореф. дис. ...канд. фил. наук. – Казань, 2011. – С.14.

¹² Аулина М. В. Эргонимия как отражение языковой ситуации в Азербайджанской Республике: автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ижевск, 2016. –23 с.

¹³ Аулина М. В. Эргонимия как отражение языковой ситуации в Азербайджанской Республике: автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ижевск, 2016. –С. 8.

¹⁴ Аулина М. В. Эргонимия как отражение языковой ситуации в Азербайджанской Республике: автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ижевск, 2016. –С. 10.

¹⁵ Аулина М. В. Эргонимия как отражение языковой ситуации в Азербайджанской Республике: автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ижевск, 2016. –С. 13.

¹⁶ Аулина М. В. Эргонимия как отражение языковой ситуации в Азербайджанской Республике: автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ижевск, 2016. –С. 14.

¹⁷ Аулина М. В. Эргонимия как отражение языковой ситуации в Азербайджанской Республике: автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ижевск, 2016. –С. 15.



Dysertatsiyada Ozarbayjon ergonomiyasida ham sovet davrida, ham hozirgi davrda nomlanishning leksik-semantik, leksik-sintaktik, morfologik va maxsus kabi usullari tadqiq etilgan. Sovet davrida raqamlash (76%) nomlanishning o'ziga xos maxsus usuli sifatida mahsuldor bo'lgan. Ikkinchi usulda nomlanish vositasi sifatida metonimiya (6%), metafora (4%), antroponimlar (6%), toponimlar (4%), davr ramzlari (2%)ni tashkil etgan¹⁸.

Bokudagi zamonaviy davr ergonomilari korpusini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, leksik-semantik usul eng samarali (87%) hisoblanib, u quyidagi nomlanish vositalari bilan ifodalangan: 1) metonimiya (6%); 2) metafora (5%); 3) antroponimlar (13%); 4) toponimlar (7%); 5) ramziy nomlanish (7%); 6) o'zlashmalar (49%) eng keng tarqalgan nomlanish vositasi hisoblanadi¹⁹.

A.M. Yemelyanova Ufa shahridagi biznes, savdo, madaniy va sport obyektlari nomlari misolida ko'p millatli shahar lingvistik landshaftidagi ergonomilarni tadqiq etgan²⁰. Tadqiqotchi ergonomilar sirasiga shahar lingvistik makonining birliklari bo'lgan turli funksional profildagi korxonalar, odamlarning xo'jalik birlashmalari (ilmiy, ta'lim, ishlab chiqarish muassasasi), tijorat korxonalari (agentlik, bank, do'kon, kompaniya), madaniyat obyektlari (kinoteatr, klub, ko'ngilochar muassasalar, teatr, park), sport muassasalari (majmua, stadion) ning atoqli otlarini kiritadi²¹.

Dysertatsiyada Ufa shahridagi ergonomilarning leksik-semantik va struktur-grammatik xususiyatlari tadqiq etilgan. Unda ergonomik materiallar leksik-semantik jihatdan tahlil etilgan va shaharning hududiy xususiyatlarini aks ettiruvchi ergonomilarning so'z yasash turlari tasniflangan va tavsiflangan.

A.M. Yemelyanova o'z ishida ergonomilarni leksik-semantik nuqtayi nazardan o'rganishda A.V. Superanskaya tomonidan taklif etilgan tasnifini (nomlangan predmetlar bilan bog'liq holda) asos qilib, ularni beshta guruhga ajratadi: 1) tirik mavjudotlar va tirik mavjudot sifatida qaraladigan nomlaridan hosil bo'lgan ergonomilar; 2) jonsiz narsalarning nomlaridan hosil bo'lgan ergonomilar; 3) murakkab obyektlar nomlaridan hosil bo'lgan ergonomilar (bu yerda A.V. Superanskaya davriy matbuot organlarining nomlarini; bayramlar; adabiyot va san'at asarlari; hujjatnomlar va boshqalarni nazarda tutadi); 4) shaxs, korxonalar va hokazolarni ifodalovchi so'zlardan yasalgan ergonomilar; 5) semantikasi xiralashgan ergonomilar²².

Tadqiqotchi mintaqaviy o'ziga xoslik nuqtayi nazaridan ergonomilarni 1) poytaxtning topografik xususiyatlarini o'z ichiga olgan nomlar; 2) Ufaning ko'p millatligini ko'rsatadigan nomlar; 3) megapolis shahar maqomini tasdiqlovchi nomlar (chet tili komponentlarini o'z ichiga olgan va xorijiy davlatlar voqeligini aks ettiruvchi); 3) shaharni mintaqaning iqtisodiy va sanoat hayotining markazi sifatida tavsiflovchi nomlar kabi turlarga ajratadi²³.

Dysertatsiyada keltirilishicha, Ufa shahri topografik xususiyatlarini o'z ichiga olgan ergonomilar birinchi navbatda informativ funktsiyani bajaradi va ularning lug'aviy asosi obyekt joylashuvi bilan bog'liq bo'lgan, ya'ni toponimlardan kelib chiqqan ergonomilar jami nomlarning 7% ni tashkil etadi.

¹⁸ Аулина М. В. Эргонимия как отражение языковой ситуации в Азербайджанской Республике: автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ижевск, 2016. –С. 19.

¹⁹ Аулина М. В. Эргонимия как отражение языковой ситуации в Азербайджанской Республике: автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ижевск, 2016. –С. 20.

²⁰ Емельянова А.М. Эргонимы в лингвистическом ландшафте полиэтнического города (на примере названий деловых, коммерческих, культурных, спортивных объектов г. Уфы): Автореф. дис. ... канд. филол. наук. -Уфа: Изд-во БГУ, 2007. - 23 с.

²¹ Емельянова А.М. Эргонимы в лингвистическом ландшафте полиэтнического города (на примере названий деловых, коммерческих, культурных, спортивных объектов г. Уфы): Автореф. дис. ... канд. филол. наук. -Уфа: Изд-во БГУ, 2007. –С. 6.

²² Емельянова А.М. Эргонимы в лингвистическом ландшафте полиэтнического города (на примере названий деловых, коммерческих, культурных, спортивных объектов г. Уфы): Автореф. дис. ... канд. филол. наук. -Уфа: Изд-во БГУ, 2007. –С. 9.

²³ Емельянова А.М. Эргонимы в лингвистическом ландшафте полиэтнического города (на примере названий деловых, коммерческих, культурных, спортивных объектов г. Уфы): Автореф. дис. ... канд. филол. наук. -Уфа: Изд-во БГУ, 2007. –С. 11.



Ufa shahrining ko'p millatliligini ko'rsatadigan ergonimlar rus va turkiy xalqlarning milliy xususiyatlarini aks ettiruvchi nomlar bilan ifodalanadi. Tadqiqotchi buning sababini Ufada yashovchi turli millat vakillarining asosiy qismini (sonini hisobga olgan holda) ruslar, boshqirdlar va tatarlar tashkil qilishi bilan dalillaydi. Shu munosabat bilan ta'kidlanadiki, Ufa ergonomikasida, birinchidan, ruslarning madaniyati, turmush tarzi, urf-odatlar va an'analari, mehr-muhabbatini aks ettiruvchi nomlar keng tarqalgan. Ikkinchidan, Boshqirdistonning poytaxti Ufa shahrining ergonimlari kelib chiqishi turkiy bo'lgan ko'p sonli nomlarni aks ettiradi²⁴.

Taniqli nomshunis olim E. Begmatov o'z ishida onomastik makroko'lam haqida so'z yuritib, "Onomastikada nisbatan qoniqarli tadqiq qilingan onomastik birliklar antroponim, toponim, gidronim, zoonim, oronim, oykonim, ergonim va etnonimlar" ekanligini qayd etadi²⁵. Ko'rinib turibdiki, tadqiqotchi bu qatorda ergonimlarni ham qoniqarli tadqiq etilgan onomastik birliklar qatoriga kiritgan. Vaholanki, olim bu fikrni qayd etgan vaqtda o'zbek tilshunosligida onomastik makonning bir bo'lagi sifatida ergonimlar, uning onomastik tizimida tutgan o'rni va lisoniy xususiyatlari monografik tarzda maxsus o'rganilmagan edi. E. Begmatov, ehtimol, bu fikrni rus tilshunosligida ergonimlarning o'rganilish holatiga nisbatan aytgan bo'lishlari mumkin.

Ma'lum bo'lishicha, onomastik tizimning qirqdan ortiq tarkibiy qismlari tadqiqiga bag'ishlangan ishlarda ergonomika va uning lisoniy xususiyatlariga tegishli monografik tadqiqotlar uchramaydi. Bu borada amalga oshirilgan ishlarni hisobga olgan holda, shuni ta'kidlash lozimki, ergonomik birliklarni monografik aspektida o'rganish dolzarb masaladir. Lekin so'ngi vaqtlarda o'zbek tilshunosligida ham ergonimlarni lisoniy jihatdan o'rganishga bo'lgan harakatlar boshlandi va ulaning tadqiqi bilan bog'liq bir qancha maqolalar e'lon qilindi²⁶. Ergonimlar tadqiqiga tegishli ayrim ishlarda o'zbek tilida nom yaratishning lingvistik-me'yoriy asoslari, ba'zi obyekt nomlarining lingvomadaniy xususiyatlari bo'yicha tegishli xulosalar berildi²⁷; ergonimlarning izohli-tavsiyaviy lug'ati yartatildi²⁸; onomastik birliklarning bibliografik ko'rsatkichi nashr qilindi²⁹.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abelin A. Phonaesthemes and sound symbolism in Swedish brand names // *Ampersand*. Vol. 2. 2015. P. 19–29.
2. Абрамова Е. И. Аллюзия и языковая игра в англоязычных эргонимах / Е. И. Абрамова // *Современные лингвистические и методико-дидактические исследования – 2018 – № 4.* – С. 171–181.
3. Аристова В.М. О лексических заимствованиях из английского языка в русский язык в XVII-XVIII вв. Москва:Высшая школа. – 1978. –113 с.

²⁴ Емельянова А.М. Эргонимы в лингвистическом ландшафте полиэтнического города (на примере названий деловых, коммерческих, культурных, спортивных объектов г. Уфы): Автореф. дис. ... канд. филол. наук. -Уфа: Изд-во БГУ, 2007. –С. 12.

²⁵ Begmatov E. Ozbek tili antroponimikasi. –Toshkent: Fan, 2013. –B. 37.

²⁶ Saparniyazova M. O'zbek tili ergonimlarining struktur-semantik tasnifi. // *Modern science and research*. –T., 2023. №5. –B.1361 - 1365. <https://masterjournals.com/index.php/crjps/article/view/1280>; Saparniyazova M. Ergonimlarning onomastik tizimdagi o'rni va tadqiqi. // *Oriental journal of philology*. May, 2023. –B.37 - 45. <https://www.supportscience.uz/index.php/ojp/article/view/624>; Saparniyazova Muxassar, Sabirova Muxlisa. Nom yaratishga assotsiativ yondashuv//Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar. Respublika 2-ilmiy-amalliy anjuman materiallari. –Toshkent, 2022. –B. 227 – 229.; Ruzimboboev S., Yanqibaeva S. Ergonimlarining ma'no kirralari. // *Ilm sarfachmalari*. – Urganj, 2017. 11-son. –B. 92 - 96; Bobojonov F. O'zbek tilida nomlash tizimi va neyning xizmati// Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar. Respublika 2-ilmiy-amalliy anjuman materiallari. –Toshkent, 2022. –B. 229 - 232.

²⁷ Saparniyazova M., O'rozov J. O'zbek tilida nom yaratishning milliy-madaniy xususiyatlari. – Toshkent: Ishonchli hamkor, 2021. -132 b.; Lutfullayeva D., Saparniyazova M., Davlatova R. O'zbek tilida nom yaratishning lingvistik-me'yoriy asoslari. – Toshkent:Malik Print CO, 2022. -189 b.

²⁸ Xudoyberganova D. Tashkilot, korxon va muassasa nomlarining izohli-tavsiyaviy lug'ati. – Toshkent: Ishonchli hamkor, 2021. -125 b.

²⁹ Begmatov E., Uluqov N. O'zbek onomastikasi (bibliografik ko'rsatkich). – Namangan, 2008. -168 b.



4. Begmatov E., Uluqov N. O‘zbek onomastikasi (bibliografik ko‘rsatkich). -Namangan, 2008. -168 b.
5. Begmatov E. Ozbek tili antroponimikasi. –Toshkent: Fan, 2013. – 264 b.
6. Березович Е.Л. Язык и традиционная культура: этнолингвистические исследования. М.: Индрик, 2007. - 599 с.
7. Bobojonov F. O‘zbek tilida nomlash tizimi va neyning xizmati.// Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar. Respublika 2-ilmiy-amalliy anjuman materiallari. –Toshkent, 2022. –B. 229 - 232.
8. Bughesiu A. English names of Pubs, Clubs and Cafes in Romania // Dritish and American Studies. January 1. 2013. URL: <http://www.questia.com/read/1P3-32776>
9. Букчина Б.З. Слово на вывеске // Русская речь. – 1968. – № 3. – С.49-56.
10. Бутакова Е. С. Лингвистическая креативность в томской эргонимии // Вестник Томского государственного педагогического университета. 2013. № 3 (131). - С. 146-151.
11. Долганова А. Ю. процессы трансонимизации в эргонимии (на материале названий магазинов Ижевска)//Вестник Удмуртского университета: филологические науки 2006. № 5 (2). –С. 25 – 30.
12. Доржиева Г. С. Информационный потенциал эргонимов г. Улан-Удэ. // Межкультурная коммуникация: аспекты дидактики. Материалы межрегионального методического семинара – Улан-Удэ : Бурятский гос. Ун-т им. Доржи Банзарова, 2020. – С. 150–156.
13. Дорофеев Ю. Антропоцентризм в лингвистике и предмет когнитивной грамматики // Лінгвістичні студії. Випуск 17. - Донецк: ДонНУ, 2008. – С. 302.
14. Эллвуд Я. 100 приемов эффективного брендинга : пер. с англ. / Я. Эллвуд; под ред. Ю. Н. Каптуревского – СПб : Питер, 2002. – 368 с.
15. Федотова Т. В. Репрезентация региональной идентичности в эргонимическом поле Кубани / Т. В. Федотова // Политическая лингвистика – 2016 – № 6 (60). – С. 85–90.

